



INCLUSIVE EDUCATION POLICY AND ITS MAIN MODELS IN THE CIS COUNTRIES AND THE USA

Safarova Zarina G'iyosovna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18277906>

ARTICLE INFO

Received: 12th January 2026

Accepted: 16th January 2026

Online: 17th January 2026

KEYWORDS

*Inclusive, competent,
psychophysical, behavioral,
integration, congress.*

ABSTRACT

The strategic goal of state policy is to create opportunities for quality education that meet the modern needs of society and each citizen. However, special attention is required for children with disabilities. That is why for many years researchers have been looking for ways and methods to help people with serious visual impairments.

MDX DAVLATLARI VA AQSHDA INKLYUZIV TA'LIM SIYOSATI VA UNING ASOSIY MODELLARI

Safarova Zarina G'iyosovna

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18277906>

ARTICLE INFO

Received: 12th January 2026

Accepted: 16th January 2026

Online: 17th January 2026

KEYWORDS

*Inklyuziv, kompetent,
psixofizik, bixeviaristik,
integratsiya, kongress.*

ABSTRACT

Davlat siyosatining strategik maqsadi – jamiyat va har bir fuqaroning zamonaviy ehtiyojlariga mos bo'lgan sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini yaratishdan iborat. Biroq, imkoniyati cheklangan bolalarga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Aynan shu sababli ko'p yillar davomida tadqiqotchilar ko'rish qobiliyatida jiddiy nuqsonlari mavjud bo'lgan insonlarga yordam berish yo'llari va usullarini izlab kelmoqdalar (<http://rosspolit.ru>).

Kirish: Ko'zi ojizlar muammolari bo'yicha birinchi xalqaro kongress 1879-yilda Vena shahrida nogironlarning "UmumRossiya Qizil Bayroq ordeni" nogironlar jamoat tashkilotining ma'lumotlariga asosida tashkil etildi hamda keying yillar davomida muntazam ravishda har uch yilda bir marta o'tkazib kelindi. Shu bilan bir qatorda Amerika, Angliya, Italiya va Skandinaviya kabi davlatlarda ham mamlakatlarida o'qituvchilar s'yezdlari o'tkazildi. Mazkur kongress va s'yezdlarning barchasi ko'zi ojizlarga ta'lim berish tizimini takomillashtirish, shuningdek, ularga ta'lim va tarbiya berish, ularga g'amxo'rlik qilish bo'yicha umumiy boshqaruv tamoyillarini har tomonlama o'rganish, takomillashtirish va ishlab chiqishda muhim o'rin egalladi (<http://www.vos.org.ru>).



Rossiyada ko'zi ojizlar uchun birinchi ta'lim muassasasi 1807-yilda Sankt-Peterburgdagi Smolninsk miskinlar xayriya uyida tashkil etilgan. Bolalarga Xudoning Qonuni, qo'shiq aytish, hunarmandchilik kabilar o'rgatilgan.

XIX-asrda ko'zi ojizlar uchun yana bir qancha maktablar ochildi, ular Ko'zi ojizlar vasiyligi (1881-yilda tashkil etilgan) tomonidan moliyalashtirilgan. Ta'lim yagona o'quv rejasi va dasturlari asosida olib borilgan, maktablarga qabul qilishning Yagona qoidalari amal qilgan. Aksariyat ta'lim oluvchilar uchun ta'lim olish pullik, narxi ancha yuqori bo'lgan, mazkur to'lov summasi ba'zan yiliga 300 rublga yetgan.

1917-yil oktyabr inqilobidan keyin ko'zi ojiz bolalar maktablari xalq ta'limi tizimining ajralmas qismiga aylandi. 1928 yilda ko'zi ojizlar uchun birinchi Sovet maktabi dasturlari ishlab chiqildi.

30-yillarning boshlarida ommaviy umumta'lim maktablari (Leningrad va Moskvadagi bir nechta maktablarda) tarkibida ko'rish qobiliyati zaif bolalar uchun ko'rish qobiliyatini himoya qilishga yo'naltirilgan dastlabki sinflar tashkil etildi, 30-yillarning oxiriga kelib esa ko'rish qobiliyati zaif bolalar uchun birinchi maktablar paydo bo'la boshladi.

Bugungi kunda Rossiyada imkoniyati cheklangan bolalarga turli idoralar qoshida faoliyat yuritayotgan ko'plab muassasalar tomonidan ixtisoslashtirilgan yordam ko'rsatib kelinmoqda. Ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar maxsus ta'lim muassasalarida, maxsus o'quv bo'linmalarida, umumiy ta'lim muassasalarida Rossiya Federatsiyasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida nazarda tutilgan ta'lim shakllarda: kunduzgi, sirtqi, kechki ta'lim; oilaviy ta'lim, mustaqil ta'lim, eksternat shaklida ta'lim olishlari mumkin. Ta'lim tizimi hal etishi lozim bo'lgan asosiy vazifalari psixofizik rivojlanishida muammolari mavjud bo'lgan bolalarni me'yoriy shaxsiy va ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularning rivojlanishini muvofiqlashtirish, ularni mustaqil hayotga tayyorlash uchun imkon qadar ko'proq imkoniyatlar yaratishdan iborat.

Oxirgi yillarda ta'lim tizimi sezilarli darajada kengaydi, jumladan, nafaqat maxsus maktablar, balki maxsus sinflar, umumta'lim maktablarida alohida ehtiyojlari mavjud bolalar guruhlarini qamrab oldi. Muvofiqlashtiruvchi va rivojlantiruvchi ta'lim tizimi shakllantirilmogda (ta'lim o'rnini bosuvchi muvofiqlashtiruvchi sinflar, yordamchi sinflar, ko'rishni himoya qilish sinflari). Ta'lim olishning aytib o'tilgan shakllaridan tashqari, alohida ta'limga ehtiyoji bo'gan shaxslar uydagi ta'lim, kompleks ta'lim va statsionar tibbiyot muassasasida ta'lim shakllarida tehsil olishlari mumkin.

Oxirgi yillarda integratsiyalangan (inklyuziv) ta'lim, ya'ni imkoniyati cheklangan, salomatligida muammolari bo'lgan bolalar va bu kabi nogironligi bo'lmagan bolalarni birgalikda ta'lim olishi uchun maxsus sharoitlar yaratish (maxsus vositalar va usullar asosida mutaxassis o'qituvchilar ishtirokida) tobora dolzarb masalaga aylanib bormogda.

Rossiyada inklyuziv ta'lim – bu nogiron bolalarning ota-onalari va bu kabi ta'lim nafaqat nogiron bolalar uchun, balki umuman butun ta'lim tizimi uchun zarurligiga ishongan o'qituvchilar va psixologlar tashabbusi asosida boshlangan ta'lim amaliyotidagi birinchi yangilik, ya'ni innovatsiya demakdir.

Rossiyada dastlabki inklyuziv ta'lim muassasalari 1980-1990 yillar sarhadlarida paydo bo'lgan. 1991 yilda Moskva shahrida Moskva davolash pedagogika markazi va ota-



ona jamoat tashkiloti tashabbusi bilan "Kovcheg" (1321-son) inklyuziv ta'lim maktabi paydo bo'ldi.

1992 yil kuzidan boshlab Rossiyada "Imkoniyati cheklangan shaxslarning integratsiyasi" mavzusidagi loyiha amalga oshirila boshlandi. Natijada 11 ta hududda nogiron bolalarning integratsiyalangan ta'lim olishi uchun tajriba maydonlari tashkil etildi. Rossiya Federatsiyasi Ta'lim va fan vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2008-2009 yillarda ta'limning inklyuziv modeli tajriba sifatida Federatsiyaning qator subyektlarida joriy qilindi: Arxangelsk, Vladimir, Leningrad, Moskva, Nijniy Novgorod, Novgorod, Samara, Tomsk va bosh. Moskvada bir yarim mingdan ortiq umumta'lim maktablari faoliyat yuritayotgan bo'lib, ulardan faqat 47 tasi inklyuziv ta'lim dasturi (<http://rosspolit.ru/>) asosida ta'lim berish bilan shig'ullanadi. Rossiyada ko'zi ojiz bolalarni ijtimoiylashtirish va ko'rish qoboliyati past bo'lgan bolalarga ta'lim berish jarayonida vujudga keladigan asosiy muammo shundaki, yirik markazlar va maktab-internatlar Moskva va shu kabi yirik shaharlarda mujassamlangan, chekka hududlar va viloyatlarda esa bu kabi bolalarning ta'lim olishi uchun deyarli sharoit yaratilmagan.

Mamalakatimizda inklyuziv ta'limni joriy qilishdagi muammaslar asosan viloyat ta'lim muassasalarida ko'zi ojiz bolalarning mustaqil harakatlanishi uchun maxsus jihozlar va ularning harakatlanishi uchun shart-sharoit yaratilmaganligi bilan bog'liq ravishda vujudga keladi.

Masalan, Komi Respublikasida nogironlar uchun davlat tomonidan kafolatlangan xizmatlardan foydalanish imkoniyati bo'yicha ikkita asosiy muammoni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchi o'rinda ijtimoiy obyektlar va transport infratuzilmalarining noqulayligi turadi. Boshqa tomondan, mazkur xizmatlarning yetarli hajmda va tegishli sifatda shakllantirilganligi haqida ham chuqur o'ylab ko'rish zarur.

Komi Respublikasi Ta'lim vazirligi imkoniyati cheklangan, nogiron bolalarning ta'lim olishi uchun to'siqlarsiz imkoniyat yaratish masalasi bo'yicha har yili monitoring o'tkazadi. Ta'kidlash joizki, keyingi yillarda respublikada nogironlar uchun turli ta'lim dasturlarini ishlab chiqish sohasida ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda.

Shunday qilib, 2009 yildan boshlab 2009-2012 yillarga mo'ljallangan "Ta'lim" ustuvor milliy loyihasi doirasida Komi Respublikasida uyda ta'lim olishga muhtoj bo'lgan bolalarga masofaviy ta'lim berish uchun sharoitlar yaratishni nazarda tutuvchi "Nogiron bolalar uchun masofaviy ta'limni rivojlantirish" tadbiri amalga oshirilmoqda.

Ijtimoiy muassasalar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga ta'sir etuvchi omillardan biri nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ishlaydigan mutaxassislarining malakasini oshirish hisoblanadi. Shu munosabat bilan Komi Respublikasining 2011-2015 yillarga mo'ljallangan "Qulay muhit" dasturida axborot, uslubiy va kadrlar bilan ishlash bo'yicha tadbirlar, jumladan, nogironlar muammolari bo'yicha seminarlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar, treninglar, nogironlar va imkoniyati cheklangan bolalarni reabilitatsiya qilish uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etish, nogironlarni reabilitatsiya qilish bo'yicha axborot va uslubiy adabiyotlarni nashr etish (<http://komivoi.ru/>) ko'zda tutilgan.

AQSHda 1940-yillarda ko'zi ojizlarni Brayl yozuvidan foydalangan holda o'qitishning faqatgina maxsus usullari ishlab chiqilgan. 1950-yillarda shaxsiy psixologik



treninglar, alohida bixeviaristik metodologiyani keng targ'ib qilinishiga, treninglarda odamlarda o'zaro ijtimoiy munosabat ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Bir xil psixologik muammolari bo'lgan insonlar uchun trening dasturlarini yaratish, o'zaro yordam guruhlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etdi.

O'tgan asrning 60-yillarida tadqiqotlarda sezgi organlari faoliyati cheklangan va ular mavjud bo'lmagan bolalarning aqliy qobiliyatlarini qiyoslashga katta e'tibor qaratilgan. Ta'lim jarayonida bolaning o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olingan dasturlarni yaratilgan (<http://www.english4blind.ru>).

Xorijiy davlatlarda 1970-yillardan boshlab imkoniyati cheklangan shaxslarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga yordam berish maqsadida me'yoriy xujjatlar to'plamini ishlab chiqish va joriy qilish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek Qo'shma Shtatlarda o'qituvchilardan barcha mavjud ilm-fanga asoslangan ta'lim dasturlarini qo'llashni talab qiluvchi "Hech bir bola e'tibordan chetda qolmaydi (No Child Left Behind (NCLB))" degan qonunni qabul qilindi. Qonun, shuningdek, barcha shtatlarni jamiki o'quvchilarning (shu jumladan, alohida ta'limga muhtoj bolalar) individual rivojlanishini ta'minlashni, ya'ni ularning o'zlashtirishini uzluksiz va yuqori darajada ta'minlashni belgilab qoydi (David Mitchell, 2008).

Shunday qilib, Amerika Qo'shma Shtatlari va Evropaning zamonaviy ta'lim siyosatida inklyuziv ta'lim bilan bir qatorda bir nechta yondashuvlar ishlab chiqilgan va rivojlantirilgan, jumladan: integratsiya (integration), asosiy oqim (main strting) va ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish (widening participation).

Inklyuziv ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra alohida ta'limga muhtoj bolalarni umumiy ta'lim muhitida o'qitishni nazarda tutadi. Ta'limning mazkur shakli an'anaviy ravishda ustun bo'lgan sog'lom bolalar guruhining mavjud me'yorlari, g'oyalari va xatti-harakatlarini o'zgartirishni taqozo etadi. Boshqacha qilib aytganda, inklyuziv ta'lim – bu moslashtirilgan o'quv dasturi, moslashtirilgan o'qitish usullari, o'zgartirilgan baholash usullari va maqbul imkoniyatlarni ta'minlash kabi maxsus shart-sharoitlarni yaratish demakdir. Shunday qilib, alohida ehtiyoji mavjud bola maktabda to'liq kun davomida umumiy ta'lim jarayoniga qamrab olingan va oddiy sinf doirasidagi dastur va sur'atlarda ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun barcha zarur jihozlar va yordamchi vositalar bilan ta'minlangan (David Mitchell, 2008).

"Inklyuziya" va "integratsiya" bu ikki atama ko'p hollarda biri ikkinchisi o'rniga ishlatiladi, biroq shu bilan birga bu ikki atama orasida katta farq ham mavjud. Chet tilidagi so'zlar lug'atida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, "integratsiya" (lotincha integratio – qayta tiklash, to'ldirish) har qanday qismlarni bir butunga birlashtirishni; o'zaro moslashish va birlashish jarayonini anglatadi. Vaykato universiteti professori va inklyuziv ta'lim bo'yicha ilmiy maslahatchi David Mitchellning so'zlariga ko'ra, integratsiya aqliy va jismoniy nuqsonlari bo'lgan bolalarning ehtiyojlarini ularning faoliyatlari uchun moslashtirilmagan, umuman o'zgarmagan ta'lim tizimiga moslashtirishdan iborat. Boshqa so'zlar bilan aytgadin bolsak, integratsiyani alohida ta'lim ehtiyojlari mavjud bo'lgan bolalarning oddiy sinflarga qisman joylashtirilishi, deb ta'riflash mumkin.



References:

1. Архипова Е. Ф. Ранняя диагностика и коррекция проблем развития. Первый год жизни ребенка. – Москва: МОЗАИКА-СИНТЕЗ, 2012. – 160 с.
2. Абдуллаева Г.С. Кар болалар мактабида якка тартибдаги машғулотларда эшитиш қобилиятини ривожлантириш ва талаффузга ўргатиш дастури // Ўқув-қўлланма. –Ташкент: “Республика таълим маркази”. 2013. – 38 б.
3. Бабенкова Н. Е. Настольная книга здоровьесбережения. Новые стандарты. – Москва: УЦ “Перспектива”, 2013. – 192 с.
4. Бабич Е. Г., Тактаров В. Г. Социально–психологическая работа по формированию толерантного отношения общества к семьям, воспитывающим детей с ограниченными
5. Банщикова Т. Н., Ветров Ю. П., Клушина Н. П. Профессиональная деятельность психолога в работе с педагогическим коллективом: учебно-методическое пособие / под редакцией Ю. П. Ветрова. – Москва: Книголюб, 2014. – 231 с.
6. Беличева С. А., Белинская А. Б. Социально–педагогическая диагностика и сопровождение социализации несовершеннолетних: учебное пособие. – Ростов–на–Дону: Феникс, 2013. – 383 с.